Ekologik zonalashtirishning turlaridan biri tabiat bogʻlarini funksional zonalashtirish boʻlib, bu ularning chegaralari doirasida funksional zonalarni (qoʻriqxonaga aylantirilgan zonalalar, rekreatsiya, xoʻjalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalari) belgilash orqali maxsus muhofaza qilishning tabaqalashtirilgan rejimini tashkil etishni va bunday zonalarning maqsadini aniqlashni anglatadi (“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi Qonunning 24, 25-moddalari).

Tadqiqotchilar ekologik zonalashtirishni amalga oshirishda koʻpincha tabiiy hududni muhofaza qilish bilan bogʻliq boʻlmagan zonalalar aniqlanishi holatlari roʻy berishiga asosli ravishda eʼtibor qaratmoqdalar [9].

Bunga rekreatsion faoliyatni amalga oshirishni taʼminlash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, turizm sohasi obyektlarini, muzeylar va axborot markazlarini joylashtirish uchun koʻzda tutilgan yoki chegaralari doirasida tabiat bogʻ hududida yashovchi fuqarolarning hayot faoliyatini va tabiat bogʻini boshqaradigan davlat muassasasining ishlashini taʼminlashga qaratilgan faoliyat koʻrsatishga ruxsat beriladigan xoʻjalik maqsadlariga moʻljallangan zona rekreatsion zonaga misol boʻlishi mumkin.

Shu bilan birga, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi Qonunning 24-moddasida tabiat bogʻlari tashkil etilayotganda ularning hududi zonalarga boʻlinishi, tabiat bogʻlarining hududida qoʻriqxonaga aylantirilgan zonalalar, rekreatsiya, xoʻjalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalari ajratib qoʻyilishi belgilangan. Shuningdek, unga koʻra, aholini sogʻlomlashtirish uchun sharoit boʻlgan taqdirda tabiat bogʻlarida kurort tabiiy hududlar uchun nazarda tutilgan rejimli kurort zonalalar ajratib qoʻyiladi. Tabiat bogʻlari zonalarining oʻlchamlari va chegaralarini oʻzgartirish, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida boʻlsa, shu organlar tomonidan, davlat ekologiya ekspertizasi xulosasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, adabiyotlarda aholi punktlari yerlarida ekologik zonalarni oʻrnatish, bunday yerlarni ekologik zonalashtirish prinsiplari va usullarini belgilash boʻyicha takliflar

bildirilmoqda [10]. Bir qator xorijiy mamlakatlarda ekologik zonalarni aniqlash bo'yicha ijobiy tajriba shakllangan.

Xususan, Germaniyada ba'zi shaharlarining markaziy hududlarida atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishini cheklash talablariga javob bermaydigan mashinalar kirishi uchun yopiq bo'lgan ekologik zonalar – shahar hududlari mavjud [11]. Bunday tajribani O'zbekiston qonunchiligida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, aholi punktlari yerlari hududlarida bunday ekologik zonalarni tashkil etish to'g'risidagi qoidalarni yer va shaharsozlik qonunchiligida normalariga kiritish maqsadga muvofiq.

Bu borada Ye.A. Saveleva ta'kidlaganidek, ekologik zonalashtirish instituti tabiiy muvozanatni tiklaydigan yagona o'zaro bog'liq tizim sifatida tabiiy muhitning barcha tarkibiy qismlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmini kasb etadi [12].

Hududlarni zonalashtirish kompleks huquqiy institut, yerlarning huquqiy rejimini aniqlash usuli (huquqiy vositalar majmui) hamda huquqiy taomil sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Huquqiy vositalar majmui sifatida hududlarni zonalashtirish bu yerdan (qishloq va o'rmon xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari hamda iqtisodiy va boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun asos), ko'chmas mulkdan (er uchastkalari va boshqa ko'chmas mulk, shu jumladan qurilish obyektlari) bir vaqtning o'zida yerni tabiiy obyekt sifatida (tabiatning eng muhim tarkibiy qismi) muhofaza qilgan holda tabiiy resurs sifatida foydalanishga oid munosabatlarni tartibga solish vositasidir.

Erlarning huquqiy rejimini aniqlash usuli sifatida hududlarni zonalashtirishni baholash mezonlari quyidagilardan iborat: hududni zonalarga bo'lish; qo'shimcha ruxsatnomalar va tasdiqlash tartibisiz yer egalarning (er uchastkalarining mulkdorlari, yerdan foydalanuvchilar, yer egalari va yer uchastkalari ijarachilari) tanlash imkoniyatini mustahkamlash ruxsat etilgan foydalanish turlarini belgilash.

Hududlarni zonalashtirish qonun hujjatlariga asoslangan huquqiy taomil sifatida, zonalarning alohida hududlarida yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mulk obyektlaridan ruxsat etilgan foydalanish turlarini belgilashni nazarda tutadi, ularning yakuniy hujjatlashtirilgan natijasi yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mulk obyektlarining huquqiy rejimi uchun asosni mustahkamlaydigan normativ-huquqiy hujjatdir.

Zonalashtirish hududni rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan foydalanishdagi cheklashlarni belgilab olgan holda uning funksional maqsadga ko'ra bo'linishi hisoblanadi.

2002-yil 4-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksiga muvofiq, hududlarning zonalashtirilishi yashash va faoliyat ko'rsatish uchun qulay muhitni ta'minlashga, hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar ta'siridan muhofaza qilishga, aholi va ishlab chiqarish haddan tashqari zich joylashishi, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni, shuningdek madaniy meros obyektlarini, qishloq xo'jalik yerlari va o'rmonzorlarni muhofaza qilishga va ulardan foydalanishga qaratilgandir (41-modda).

Hududlarning zonalashtirilishi hamda hududiy zonalarning shaharsozlik reglamentlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat shaharsozlik kadastrida qamrab olinadi hamda shaharsozlik jihatidan rejalashtirishning biriktirma tarhlarida, O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududini rejalashtirish tarhlarida, tumanni (tumanlar guruhlarini)

rejalashtirish loyihalarida, aholi punktining bosh rejasida hamda batafsil rejalashtirish loyihalarida belgilanadi (Shaharsozlik kodeksining 28-, 30-, 31-, 33-, 34- va 37-moddalarini).

Hududlarni zonalashtirishda vakolatli organlar normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda zonalashtirish uchun ma'lum hududni qismlarga bo'lib ajratadilar [13]. Zonalashtirish ma'lum bir hududni qamrab olgan holda uni alohida qismlarga – har xil turdagi zonalarga ajratishni nazarda tutadi. Natijada, hudud turli xil zonalar to'plamini ifodalaydi. Shubhasiz, zonalashtirishning huquqiy ahamiyati aslida ma'lum zonalarini barpo etishda emas (bu maqsadga erishish uchun vositadir), balki zonalar chegaralarida vujudga keladigan munosabatlarni muayyan huquq normalari doirasida bo'lishini ta'minlash hamdir [14].

O.V.Shatrovaning fikricha, shaharlarni zonalashtirish asosan yer uchastkalarini xususiyashtirish obyekti sifatida individualashtirishni, shuningdek, o'zlashtirilmagan qurilish qilinmagan yer uchastkalarini qanday xususiyashtirishni belgilaydi. Aholi punktida shaharsozlik zonalashtirish mavjud bo'lmaganda, qurilish qilinmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish usulini tanlashda hal qiluvchi omil bu undan ruxsat etilgan foydalanishdir [15].

N.L.Lisina hududiy zonalashtirishning huquqiy tabiatiga to'xtalib, uni amalga oshirish natijasida yer uchastkalaridan va ularning boshqa ko'chmas mulklaridan foydalanishning ruxsat berilgan turlari aniqlanadi va bir tomondan, u aholi punktlari yerlaridan foydalanishda shaharsozlik rejalashtirilishi elementi bo'lsa, ikkinchi tomondan, yer uchastkalaridan aholi punktlari yerlarining tarkibida foydalanishni huquqiy tartibga solish usuli bo'lib xizmat qiladi, deb yozadi. Muallifning fikricha, hududiy zonalashtirish – bu aholi punktining hududini zonalarga bo'lish va ularning huquqiy rejimini shaharsozlik hujjatlari va qurilish qoidalarida belgilash, shaharsozlik sohasidagi tegishli organlarning yer uchastkalaridan foydalanishni, ularda bino va inshootlarni yagona kompleks sifatida tashkil etish va ulardan foydalanishni kelishilgan huquqiy tartibga solishga qaratilgan faoliyati [16].

Zonalashtirish muayyan zonalar hududlaridan shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanishda cheklashlar belgilanishini nazarda tutadi. Xususan, Shaharsozlik kodeksining 41-moddasida 9 ta zonalarining hududlaridan foydalanishda cheklashlar nazarda tutilgan: madaniy meros obyektlarining muhofaza zonalarini, qo'riqxonalar zonalarida; muhofaza etiladigan tabiiy hududlar zonalarida; sanitariya zonalarida; muhofaza zonalarida; sanitariya-muhofaza zonalarida; foydali qazilmalar joylashgan zonalarida; tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarning ta'siriga uchragan zonalarida; favqulodda ekologik holatlar va ekologik ofat zonalarida; tabiiy-iqlim sharoiti ekstremal zonalarida.

Hududlarning funksional maqsadi va ulardan foydalanish jadalligi hududlardan foydalanishdagi mazkur cheklashlar hisobga olingan holda belgilanadi.

A.Yu.Aleksandrova qurilishi mo'ljallangan aholi punktlari yerlarining huquqiy rejimi aniqlanadigan zonalarini ikkita mezonga ko'ra tasniflaydi: zonalarini ajratish (belgilash) maqsadlari va ushbu maqsadlarga erishish yo'li bo'yicha.

Muallifning fikricha, ajratish (belgilash) maqsadlariga ko'ra zonalar quyidagilarga bo'linadi: 1) tashkiliy-iqtisodiy zonalar – o'rnatilishidan asosiy maqsad yerlarni toifalarga ajratish jarayonida aniqlangan mumkin bo'lgan qurilish turlarini aniqlashdan iborat bo'lgan zonalar; 2) ekologik zonalar – tashkil etilishidan asosiy maqsad atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'lgan zonalar.

Zonalarni ajratish maqsadlariga erishish usuliga ko'ra, quyidagi zonalarga bo'linadi: yerdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarining to'liq ro'yxatini o'rnatadigan "asosiy" zonalari; yerlar va yer uchastkalarining amaldagi huquqiy rejimiga faqatgina qo'shimcha cheklovlar qo'yadigan "qo'shimcha" zonalari [17].

Ye.S.Bedova mavjud hududiy zonalarning turlarini qonun hujjatlarida funksional maqsadlariga muvofiq quyidagicha tasniflashni taklif etadi: ijtimoiy yo'nalishdagi infratuzilma obyektlarini (turar-joylar zonalari, jamoat va ishbilarmonlik zonalari, muhandislik-transport infratuzilmasi zonalari va boshqalar) joylashtirish uchun mo'ljallangan ijtimoiy zonalari; ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradigan obyektlarni (ishlab chiqarish zonalari, qishloq xo'jaligidan foydalanish zonalari va boshqalar) joylashtirish maqsadidagi ishlab chiqarish zonalari; maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish bo'lgan ekologik zonalari (rekreatsion zonalari, alohida qo'riqlanadigan hududlar zonalari va boshqalar); maqsadlari aholining maxsus ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan maxsus maqsadli zonalari (maxsus maqsadli zonalari, harbiy obyektlarni joylashtirish zonalari va boshqalar) [18].

Aholi punktlarini rejalashtirish va qurish jarayonida ularning ekologik xavfsizligini ta'minlaydigan shaharsozlikning asosiy chora-tadbirlari aholi punktlari hududlarini funksional zonalashtirish hisoblanadi. Shaharsozlik zonalashtirish, zonalari shaharsozlik foydalanish turlarini va ulardan foydalanishni cheklashni belgilab, aholi punktlarini rivojlantirish uchun shaharsozlik rejalashtirish davrida hududlarni zonalarga ajratishni nazarda tutadi.

S.A.Balashenko esa, aholi punktlari chegaralari doirasida (chekkasida) quyidagi hududiy zonalarni ajratishni taklif qiladi: 1) turar-joy zonalari – turar-joy binolari qurish uchun mo'ljallangan, ularga ijtimoiy-madaniy, madaniy maqsaddagi, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, avtotransport vositalarining to'xtash joylari, sanoat, kommunal va omborxonalar tashkil etilishi mumkin bo'lgan hududlardir, ular uchun sanitariya muhofaza zonalari belgilash talab etilmaydi, ularning faoliyati atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydi (shovqin, tebranish, magnit maydonlar, radiatsiya ta'siri, tuproq, havo, suv ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlar); 2) ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalari – ishbilarmonlik, moliyaviy va ijtimoiy faoliyat markazlari, ma'muriy va boshqa bino va inshootlar, madaniy, o'quv muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, madaniy obyektlar, savdo tashkilotlari, umumiy ovqatlanish joylari, ni joylashtirish uchun mo'ljallangan hududlar, sog'liqni saqlash, aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatish, shuningdek avtoturargohlar; 3) ishlab chiqarish zonalari – sanoat korxonalarini, transport, muhandislik- infratuzilmasi, ushbu korxonalarining ishlashini ta'minlaydigan kommunal va omborxonalar obyektlari, shu jumladan sanoat korxonalarini va ularga xizmat ko'rsatadigan obyektlarning sanitariya-muhofaza zonalari hududlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan hududlar; 4) transport, muhandislik infratuzilmasi zonalari – transport, aloqa va muhandislik uskunalari inshootlari va kommunikatsiyalarining joylashishi va ishlashi uchun mo'ljallangan hududlar; 5) dam olish zonalari – aholi dam olish joylarini tashkil qilish uchun mo'ljallangan hududlar, shu jumladan istirohat bog'lari, shahar o'rmonlari, o'rmon bog'lari, plyajlar va boshqa dam olish va turizm obyektlari; 6) qishloq-xo'jalik zonalari – boshqariladigan va boshqa shaharsozlik hujjatlariga muvofiq ushbu hududlardan foydalanish turini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha, qishloq xo'jaligini yuritish, mol boqish va pichanlarni o'rish uchun mo'ljallangan ustuvor qishloq xo'jaligi obyektlari hududlari; 7) maxsus maqsadli zonalari – harbiy va boshqa inshootlarni joylashtirishga mo'ljallangan, ularga nisbatan qonun

hujjatlarida maxsus rejim va ulardan foydalanish tartibi belgilangan hududlar va boshqa hududiy zonalar [19].

Shaharsozlik kodeksiga asosan, aholi punktlarining hududlarida 9 ta turdagi hududiy zonalar belgilanishi mumkin: turar joy zonalar; ijtimoiy-amaliy zonalar; ishlab chiqarish zonalar; muhandislik va transportga oid infratuzilmalar zonalar; rekreatsion zonalar; qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan zonalar; maxsus maqsadlarga mo'ljallangan zonalar; harbiy obyektlar va rejimli boshqa hududlar zonalar; shahar atrofi zonalar.

Aholi punktlari hududiy zonalarining chegaralari qizil chiziqlarni, tabiiy obyektlarning tabiiy chegaralarini, yer uchastkalarining chegaralari va boshqa chegaralarni inobatga olgan holda belgilanadi.

Har bir hududiy zona uchun shaharsozlik reglamenti bilan belgilangan huquqiy rejim unda joylashgan barcha yer uchastkalari, binolar, inshootlar va boshqa obyektlarga nisbatan bir xil qo'llaniladi.

Chegaralarida shaharsozlik faoliyati alohida tartibga solinishi lozim bo'lgan hududiy zonalarda ayrim binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning loyihalashtirilishi va qurilishiga nisbatan qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin (Shaharsozlik kodeksining 42-moddasi).

Yuqoridagilar asosida maqsadi va vazifalariga qarab, zonalashtirishni uch turga bo'lish mumkin:

1) "ruxsat etuvchi-cheklovchi" zonalashtirish – uning asosiy maqsadi ajratilgan zona chegarasida joylashgan yer uchastkalari va boshqa obyektlardan foydalanishning mumkin bo'lgan turlarini aniqlash hisoblanadi. Obyektlarning ishlatilishi mumkin bo'lgan turlarini belgilash, ruxsat etilganlar turlar ro'yxatiga kiritilmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishni cheklashga olib keladi. Mazkur zonalashtirish turining nomi, tabiiy obyektlar sohasida ruxsat, odatda, ruxsat berilmagan faoliyatni cheklash bilan taqqoslanishini ta'kidlash uchun mo'ljallangan [20]. Shaharsozlik zonalashtirilishi ko'chmas mulkdan foydalanishning ruxsat etilgan turlarini, bunday foydalanish shartlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Ushbu zonalashtirish turining maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va inson hayoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun hududni tashkil etishga kompleks yondashishni ta'minlashdan iborat.

2) ekologik zonalashtirish – muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ayrim turlari uchun nazarda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda 710-II-sonli "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" Qonunida suvni muhofaza qilish zonalar, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalar, rekreatsiya zonalar, kurort tabiiy hududlar zonalar, baliq xo'jaligi zonalar, qo'riqlanma zonalar, tabiat bog'lari zonalar, milliy bog'lar hududlaridagi funksional zonalar va boshqalar haqida so'z boradi.

O.M.Ko'z'or milliy va tabiiy bog'lar hududlarini zonalashtirish bu muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risidagi shakllangan qonunchilik instituti ekanligini ta'kidlaydi [21]. N.V.Kichigin ekologik zonalashtirishni muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va obyektlar [22] rejimining xususiyatidir, deb yozadi.

Ekologik zonalashtirish tegishli hududda tabiatdan foydalanishning maxsus rejimi o'rnatilishi bilan tavsiflanadi. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar xo'jalik foydalanishdan to'liq yoki qisman olib qo'yilgan yerlar deb belgilaydi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yaratish noyob va tipik tabiiy majmualar va obyektlarni saqlashga, biosferadagi, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari tabiiy jarayonlarni, ularning genetik fondini va boshqalarni

o'rganishga qaratilgan [23]. Tabiiy hududlarni muhofaza qilish ularni maqsadlariga bog'liq bo'lmagan faoliyatni taqiqlashni anglatadi;

3) “tashkiliy-boshqaruv” zonalashtirish – tabiatdan foydalanish doirasida tashkillashtirish va boshqaruv sohasi muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu zonalashtirish turiga hududiy rejalashtirishda funksional zonalar ajratish va boshqalarni kiritish mumkin. Shunday qilib, hududni funksional zonalashtirish, yerdan foydalanish va qurilish qoidalarida batafsil huquqiy rejimga ega bo'lgan hududning istiqbolli ustuvorligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Tabiiy resurslarni saqlash va ularni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun aniq talablarni belgilash, yer manbalari va boshqa obyektlardan foydalanish uchun qo'shimcha taqiqlar va maxsus shartlar, ayrim hududlarda maxsus zonalar ajratilgan [24].

Bu boradagi jahon amaliyotiga e'tibor qaratilsa, masalan, AQShda o'rnatilishi muayyan tabiiy resursni himoya qiladigan yoki ba'zi sohalarda rivojlanishni rag'batlantirishni ta'minlaydigan, “qoplama zonalar” ajralib turadi. Qoplanadigan zonalashtirish jamoat manfaati – tarixiy ahamiyatga ega obyektlarni saqlash, ichimlik suvini himoya qilish va boshqalar mavjud bo'lganda qo'llaniladi [25].

Zonalashtirish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan tartib-taomil sifatida hududiy xususiyatga ega, ya'ni zonalar – bu hujjatlarda tasvirlangan va tavsiflangan, kartografik materiallarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan, chegaralarga ega bo'lishi kerak bo'lgan – hududning bir qismidir. Tegishli zonalarining chegaralarini tasdiqlash, zonaning chegaralarida joylashgan obyektlardan foydalanadigan (foydalanishni rejalashtirgan), tabiatdan foydalanadigan, tegishli hududda xo'jalik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga ta'sir qiladi.

Ko'rib chiqilayotgan faoliyat turlariga xos bo'lgan va yuqorida aytib o'tilgan barcha umumiy narsalar L.B. Sheyninning, faqat butun hudud muayyan zonalar [26] bo'linganida hududni zonalashtirilgan deb tushunish kerak degan fikriga qo'shilishimizga imkon bermaydi. Chunki, zonalashtirish ayrim hollarda kichik maydonlarda ham amalga oshirilishi mumkin [27].

Yer uchastkasiga maxsus zona huquqiy rejimining qo'llanilishi, nafaqat obyektning qurishda maxsus qoidalarga majburiy rioya qilishni, balki ba'zi hollarda – yer uchastkasining muomalasini cheklashni, uni qurish uchun berishning mumkin emasligini yoki egasiga uchastkada joylashgan bino, inshoot, obyektning xususiyashtirishni taqiqlashni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, yerlarni zonalashtirish davlat va xususiy manfaatlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, yerdan foydalanish barqarorligini kafolatlaydi hamda unga sarmoya qilish uchun sharoit yaratiladi. Jamiyat manfaatlari yer, bino va inshootlardan foydalanishni rejalashtirish imkoniyati bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, yerlardan oqilona foydalanish va himoya qilishni ta'minlash maqsadida hududlarni zonalashtirish amalga oshiriladi, shuning uchun qonunchilikda yer uchastkalaridan foydalanishni cheklaydigan ko'plab turdagi zonalar belgilangan [28].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamoatchilikning ekologik manfaatlarini amalga oshirish va har bir kishining shaharsozlik zonalashtirilishida qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash vositasi sifatida jamoatchilik eshituvlari samarali huquqiy vositaga aylanishi kerak.

Yerdan foydalanish va qurilish qilishni loyihalashtirilayotgan yoki o'zgartirilayotgan qoidalari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun tegishli davlat organlari aholini o'z vaqtida va to'sqinliksiz foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan jamoatchilik muhokamalari mexanizmini takomillashtirish, ularning mazmun-mohiyati (e'tirozlari, mulohazalari, takliflari) haqida jamoatchilik fikrini ifoda etish va qayd etish imkoniyatini ta'minlash zarur.

Shu nuqtai nazardan Shaharsozlik kodeksi 10-moddasini quyidagi tahrirdagi oltinchi qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq: "Jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish uchun yerdan foydalanish va unga qurilishni amalga oshirish loyihalari, shu jumladan ushbu loyihani asoslash uchun zarur tahliliy, iqtisodiy va moliyaviy materiallar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, davlat siri bilan bog'liq materiallar bundan mustasno.

Agar jamoatchilik muhokamasi ishtirokchilari yerdan foydalanish va qurilishni amalga oshirish loyihasi bo'yicha e'tirozlar, mulohazalar, takliflarni bildirsalar, loyiha bo'yicha kelishmovchiliklar bayonnomasi tuziladi hamda kelishuv taomillari o'tkaziladi.

Jamoatchilik muhokamasi natijalari to'g'risidagi xulosada kelishmovchiliklar bayonnomasiga binoan ularni qabul qilish yoki rad etish asoslari ko'rsatilgan ommaviy muhokamaning ishtirokchilari tomonidan bildirilgan e'tirozlar, mulohazalar, takliflar ko'rsatiladi".

Xulosa qilib aytganda, yerlarni zonalashtirish hududlarning barqaror rivojlanishiga, fuqarolarning sog'lig'ini, jamiyat va davlatning madaniy qadriyatlarini himoya qilishga, ekologik xavfsizlikka va jamiyatning iqtisodiy farovonligiga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ekologiya. Yuridicheskiy ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. S.A. Bogolyubova. – M., 2001. – S. 134.
2. Krassov O.I. Kommentariy k Zemelnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii. 2-ye izd. – M., 2010. – S. 87.
3. Melnikov N.N. Teoreticheskie osnovy otneseniya zemel k kategoriyam i zonirovaniya territoriy v Rossiyskoy Federatsii // Hozyaystvo i pravo. – Moskva, 2013. – № 3. – S. 83.
4. Kommentariy k Vodnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod red. O.L. Dubovik. – M.: Eksmo, 2012. – S. 79.
5. Bogdanov N.A. Ekologicheskoe zonirovaniye: nauchno-metodicheskie priemy (Astraxanskaya oblast). – M., 2005.
6. Kommentariy k Vodnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod red. O.L. Dubovik. – M.: Eksmo, 2012. – S. 81.
7. Kolesova O.N. Pravovoy rejim vodooxranoy zony // Jurnal rossiyskogo prava. – 2012. – №4. – S. 50-57.
8. Borisov A.A. Znachenie zonirovaniya territoriy pri opredelenii pravovogo rejima zemel: Diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2014. – S. 50.
9. Borisov A.A. Zonirovaniye territoriy kak element realizatsii konsepsii ustoychivogo razvitiya // Gosudarstvo v menyayushchemsya mire: materialy VI Mejdunarodnoy shkoly-praktikuma molodykh uchenykh-yuristov (Moskva, 26-28 maya 2011) / Otv. red. V.I. Lafitskiy. – M., 2012. – S 726-727.
10. Pogorelaya O.N. O metodax i principax ekologicheskogo zonirovaniya gorodskix territoriy // Vestnik Baltiyskogo federalnogo universiteta im. I. Kanta. – 2012. – № 1. – S. 58; Anisimov A.P. Novyy Gradostroitelnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii v kontekste zemelnoy reformy // Pravo i ekonomika. – 2005. – № 3. – S. 3-8.

11. Nauchno-prakticheskiy kommentariy k Federalnomu zakonu «Ob ohrane okrujayushchey sredy» (postateynyy) / Pod red. A.P. Anisimova. – M., 2010.
12. Saveleva Ye.A. Pravovoe regulirovanie ekologicheskogo zonirovaniya v Rossiyskoy Federatsii // Rossiyskaya yustitsiya. – Moskva, 2014. – №2. – S. 12-13. Boltanova E. Legal issues of land zoning in Russia // REBA News. – 2013. – Vol. 10. – № 5. – P. 10.
13. Anisimov A. Zonirovanie territoriy gorodskix i selskix poseleniy: vidy i pravovoe znachenie // Pravo i ekonomika. – 2004. – № 6. – S. 58-64; Anisimov A.P. Teoreticheskie osnovy pravovogo rejima zemel poseleniy v Rossiyskoy Federatsii: Diss. ... doktor. yurid. nauk. – Saratov, 2004. – S. 261.
14. Shatrova O.V. Pravovoe regulirovanie privatizatsii zemelnykh uchastkov v poseleniyax: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2006. – S.9.
15. Lisina N.L. Pravovoy rejim zemel poseleniy: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2003.
16. Aleksandrova A.Yu. Pravovoe regulirovanie ispolzovaniya zemel poseleniy dlya zastroyki v Rossii: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2008. – S. 5-6.
17. Bedova Ye.S. Pravovoy rejim zemel naselennykh punktov: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2012. – S.8-9.
18. Ekologicheskoe pravo: ucheb. posobie / S.A. Balashenko [i dr.]; pod red. T.I. Makarovoy, V.E. Lizgaro. – Minsk: BGU, 2008. – S.337-338.
19. Volkov G.A. Printsipy zemelnogo prava Rossii. M.: Gorodes, 2005. S. 90 – 110; Vasileva M.I. O metodax, sredstvax i sposobax pravovogo regulirovaniya ekologicheskix otnosheniy // Ekologicheskoe pravo. 2009. – № 2/3. – S. 56-67.;
20. Cherednikov A.V. Gradostroitelnoe zonirovanie kak sredstvo obespecheniya publicnykh ekologicheskix i chastnykh interesov: diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2012. – S. 57.
21. Kozyr O.M. Ekologicheskoe zonirovanie territoriy // Ekologicheskoe pravo Rossii: Sbornik materialov nauchno-prakt. konf. Yubileynyy vyppusk / Pod red. A.K. Golichenkova. – M.: TISSO, 2004. T. 1. – S. 471.
22. Bogolyubov S.A., Kichigin N.V. Zakonodatelnoe regulirovanie deyatelnosti federalnykh organov ispolnitelnoy vlasti po obespecheniyu ekologicheskoy bezopasnosti. – M., 2007. – S. 130.
23. Borisov A.A. Znachenie zonirovaniya territoriy pri opredelenii pravovogo rejima zemel: Diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2014. – S. 50-65.
24. Boltanova Ye.S. Zonirovanie zemel i ix zastroyka: problemy pravoprimeneniya // Vestnik Omskogo Universiteta. – Moskva, 2012. – №3(32). – S. 190-193.
25. Garvin Elizabeth A. Making Use of Overlay Zones // Planning Commissioners Journal. 2001. № 43 (Summer). R. 16 – 18; Joel Russell. Overlay Zoning to Protect Surface Waters // Planning Commissioners Journal. 2004. № 54 (Spring). R. 1 – 4; C. Majors, J. Rufo Hill, C. Stewart, J.D. Tovey. Land Use Planning. Land Use Tool. Analysis. Assignment. February 2007 (URL: http://courses.washington.edu/udp501/501%20papers/LUP_PUD_OZ7_CSedits-1.doc)
26. Sheynin L.B. Zemelnoe pravo Rossii: uchebnoe posobie (Rossiyskoe yuridicheskoe obrazovanie). – M.: Eksmo, 2007. – S. 149.
27. Zolotova O.A. Pravovoy rejim zemel ohrannykh zon: dis. ... kand. yurid. nauk. – M., 2013. – S. 66-85
28. Boltanova Ye.S. Ekologo-pravovye osnovy regulirovaniya zastroyki zemel zdaniyami i sooruzheniyami v Rossii: Diss. ... dokt. yurid. nauk. – Tomsk: NITGU, 2014.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).